Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

BUYUK RASSOMLAR IJODIDA QALAMCHIZGILAR

Oripov Ne'matillo Chulliyevich
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi katta o'qituvchisi

Rabbimova Gulsevar Ilhom qizi
Qarshi davlat universiteti
Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk rassomlar ijodida qalamchizgilarning ahamiyati haqida so'z boradi. Xususan rasm chizishda qalamchizgilar va chizgilar bajarish shartlari, texnikalari, qalamchizgilar bajarishga o'rgatish metodukarisning tarixiy taraqqiyoti mazmuni va olimlar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar o'rganilgan. Shunindek qalamchizgilar bajarish texnika, texnologiyalari tadqiq qilingan.

Kali so'zlar: Qalamtasvir, qalamchizgi, badiiy, ijodiy uslub, istedod, haykaltaroshlik, ijod, tasvir va ta'sir.

Qalamtasvir - barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. Rassom o'zining kuzatishlari, badiiy asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. Badiiy asarlarini yaratishda esa, ushbu bajarilgan chizgilar rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Rassom u yoki bu kartina yaratishni qalamchizgilardan boshlaydi. Shundan keyingina, ushbu san'at asari ranglar jilosi orqali tomoshabinlarga estetik zavq, huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o'z asarini yetuk holga keltira olmaydi. Qalamtasvir boshqa san'at turlari orasida mustaqil ravishda tugallangan dastgohli san'at asari bo'lishi ham mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalam bilan bajarilgan ko'plab kartinalar jahonning turli san'at muzeyi va ko'rgazmalaridan joy olgan. Qalamtasvir mashg'ulotlari ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini shakllantirishda, nafaqat, bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga zarurdir.[1]

Buyuk rassomlar ijodida qalamchizgilar muhim ahamiyat kasb etgan, va buni ular tomonidan rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik va boshqalarda chizgilar va ularning ahamiyati haqida bildirgan fikrlaridan bilish mumkin.

Uyg'onish davrining buyuk rassomi va olimi **Leonardo da Vinchi "Rangtasvir qonunlari"** nomli asarida ta'kidlaganidek, yoshlar o 'zlarini ilm-fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozim.

[1] Boymetov B. Qalamtasvir. Pedagogika yo'na- lishidagi kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. T.: - «ILM ZIYO», 2007. - 192 b.





Leonardo da Vinchi
Avtoportret, 1512-1515 -yillar

Mikelanjelo Buanorottining fikricha, qalamtasvir yoki chizgilar san'ati ham rassomchilik, ham haykaltaroshlik, ham me'morchilikning yuqori nuqtasi hisoblanib, qalamtasvir barcha ilmlarning ildizi va manbayidir.

Xomaki rasm va chizgilar ularning farqli jihatlarini ham bilish zarur. Xomaki rasm, bu, qisqa, ba'zan esa, cheklangan vaqt davomida, ko'p hollarda esa rasm chizuvchining o'ziga bog'liq bo'lmagan bir tarzda bajariladigan predmetlarning umumlashtirilgan to'liqsiz tasvirlanishidir. Ishni tezlashtirish maqsadida eng kam bo'lgan grafik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Murakkab shaklni faqat uning asosiy, mayda ikir-chikirlarsiz tipik, o'ziga xos alomatlari aniq va ifodali tarzda hal etiladigan predmetlarning realistik tasvirini umumlashtirilgan, deb hisoblash kerak. Shu boisdan ham xomaki rasm ko'p hollarda «yaxlit, ko'zga ko'rinib turgan predmetning qism, bo'lakchalarsiz tasviri bilan belgilanadi». Xomaki rasmlar bu akademik vazifani boshlashdan avval o'quv rasmini kompozitsiya jihatidan joylashtirishda har doim naturaning umumlashtirilgan tasviridan, ya'ni aslini olganda, xomaki rasmdan foydalaniladi. Shu sabali ham o'quv muassasalarida pedagoglar akademik rasmni boshlashdan oldin o'quvchilarga naturani turli nuqtalardan turib qalamchizgilar bajarishni va shundan so'ng, kerakli joyni tanlab olgach asosiy ishga kirishishni tavsiya qilishadi. Chunki xomaki rasm muvaffaqiyat bilan topilganda, naturaning butun massasi joylanishi davomli o'quv rasmining asosi bo'lib hisoblanishi mumkin.

Chizgi - xomaki rasmga nisbatan bir muncha to'liq hisoblanadi. Lekin ba'zi hollarda u davomli o'quv rasmiga qaraganda, birmuncha qisqa vaqt oralig'ida naturadan bajariladigan predmetlarning mukammal bo'lmagan tasviri hisoblanadi. Chizgi ustida ishlash vaqtini, ko'p hollarda rasm chizuvchining o'zi belgilaydiki, bu ushbu rasm mazmuni, shuningdek, uning keyinchalik amalga oshadigan maqsadiga qo'yadigan talablariga bog'liq boladi. Naturadagi chiziladigan chizgi xuddi xomaki rasmning detallar bilan boyitilishi kabidir. Naturaning qay holda yuzaga chiqarilishiga qarab, chizgi xomaki rasm bilan davomli rasm o'rtasidagi oraliq bir vosita bo'lib qoladi. Boshqacha so'z bilan aytadigan bo'lsak, naturadan chizilgan xomaki rasm ishida o'sha naturadan davom ettirilgan ish sekin-

asta chizgiga aylanishi mumkinki, bunda rasm ikir-chikirlariga batafsilroq to‘xtaladi. Xomaki rasm bilan chizgi o‘rtasidagi farq u yoki bu rasmni chizish uchun sarflanadigan vaqtdan emas, balki asosan ish usulining o‘zidan ham iboratdir. Chizgi boshidan oxirigacha naturadan chizish orqali bajariladi. Xomaki esa, nafaqat, natu- radan, balki xotiradan, tasawurdan, idrokdan, shuningdek, barcha usullami ham qo‘llab chizilishi mumkin. Xomaki rasmlar ijrosining aynan shu xildagi usullari keyinchalik, nafaqat, umuman rasm chizishga o‘rgatish, balki yuqorida aytib o‘tilgan bo‘lajak rassom uchun zarur bo‘lgan sifatlar yig‘indisini tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Xomaki rasm va chizgilarga o‘rgatishda natura sifatida xuddi davomli rasm chizishda qo‘llaniladigan shaklan yaqin bo‘lgan (yoki mazmunan shu kabi) obyektlardan foydalaniladi.[2]

Tasviriy san’at tarixiga nazar tashlar ekanmiz, har qanday ulug‘vor va mukammal polotno zamirida dastlabki oddiy chiziqlar — qalamchizgilar, eskizlar va etudlar yotganiga guvoh bo‘lamiz. Ko‘pincha tomoshabin e’tiboridan chetda qoladigan yoki faqatgina tayyorgarlik bosqichi deb qaraladigan qalamchizgilar, aslida, rassom ichki dunyosining eng samimiy, toza va erkin ko‘zgusidir. Buyuk rassomlar ijodida qalamchizgilar shunchaki texnik mashq yoki rasm chizishni o‘rganish vositasi emas, balki mustaqil va ulkan badiiy qiymatga ega bo‘lgan alohida san’at asari hisoblanadi.

Qalamchizgilarning eng asosiy qiymati shundaki, ular ijodkorning fikrlash jarayonini, uning xayolidagi g‘oyaning qanday tug‘ilgani va rivojlanganini jonli tarzda ko‘rsatib beradi. Masalan, Leonardo da Vinchining anatomik chizgilari va muhandislik eskizlari uning nafaqat rassom, balki buyuk olim bo‘lganini isbotlasa, Mikelandjeloning Sistin kapellasini chizishdan oldin yaratgan yuzlab qalamchizgilari inson tanasining plastikasi va harakat dinamikasini eng yuqori nuqtaga olib chiqqanidan dalolat beradi. Rembrandt va Rafael kabi ustalar esa bir nechta tezkor chiziqlar orqali inson psixologiyasini, yorug‘-soya nisbatlarini va kelajakdagi asarning mukammal kompozitsion poydevorini qurishgan. Katta hajmli, moybo‘yoqda chizilgan asarlarda rassom ma’lum bir qoliplarga, buyurtmachi talablariga yoki davr senzurasiga bo‘ysunishga majbur bo‘lgan bo‘lishi mumkin, biroq qalamchizgida u mutlaqo erkin bo‘lgan. Qalam, ko‘mir yoki sangina bilan chizilgan lahzali eskizlarda soxtalik bo‘lmaydi, ularda rassomning hissiyotlari, hayajoni va g‘oyaning ilk "portlashi" aks etadi. Shu bois ham ko‘plab san’atshunoslar qalamchizgilarni rassomning shaxsiy kundaligi deb hisoblashadi. Yakuniy xulosa o‘rnida aytish mumkinki, buyuk rassomlar ijodidagi qalamchizgilar tizimi — bu butun boshli tasviriy san’atning poydevoridir. Poydevorsiz binoni tasavvur qilib bo‘lmaganidek, qalamchizgilarsiz ham jahon durdonalarini anglash qiyin. Ular bizga san’at asarining yakuniy variantini emas, balki o‘sha asarning tug‘ilish lahzasini va rassom qalbining eng samimiy urishini ko‘rsatadi. Bugungi kunda jahonning eng nufuzli muzeylarida buyuk ustalarning kichik qalamchizgilari ulkan polotnolar bilan bir qatorda eng nodir va qimmatbaho eksponatlar sifatida asralishi ham ularning san’at tarixidagi o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boymetov B. Qalamtasvir. Oliy o’quv yurtlari uchun darslik. Musiqa nashriyoti. T.: - 2006
2. Boymetov B. Qalamtasvir. Pedagogika yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: - «ILM ZIYO», 2007. - 192 b.
3. Boymetov B. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007. - 120 b.
4. B.Boymetov. Haykaltaroshlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2003
5. Qorjovov Bobur Jovliyevich. Философские основы феномена творчества в художественном восприятии произведениий изобразительного искусства. SCIENCE AND WORLD International scientific journal 2019.

[2] Boymetov B. Qalamtasvir. Pedagogika yo‘na- lishidagi kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: - «ILM ZIYO», 2007. - 192 b.

6. Qorjovov Bobur Jovliyevich. Composition, Artistic Harmony and Logical Solution in Karl Pavlovich Bryullov's "The Last Day of Pompey", International Journal of Psychosocial Rehabilitationcv ISSN:1475-7192.
7. N.Ch Oripov "Haykaltaroshlik san'atida qadriyatlar ifodasini idrok etilishi", 2022 yil So'z san'ati xalqaro juranali ISSN2181-9297 Vol.7 Issue 2